

**Urganch davlat universitetida  
Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha”  
loyihasini amalga oshirishni tashkil etish  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5927-ton Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2020 yil 4 sentabrdagi 22-2488sonli topshirig‘ida belgilangan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligida yashirin iqtisodoyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oildini olish bo‘yicha 2020-2021 yillarga mo’ljallangan “Yo‘l xaritasidagi” vazifalar va Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risidagi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 28 iyundagi 281-tonli buyrug‘iga asosan “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasi va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 28 iyundagi 281-tonli buyrug‘idagi Oliy ta’lim tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirishni tashkil etish rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo‘lim boshliqlariga:
  - Universitetda Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim) tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
  - Universitetning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klub faoliyatini to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Kadrlar bo‘limi boshlig‘i (X.Rajapov)ga:
  - Bo‘lim xodimlarini ishga qabul qilish ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirilsin;
4. Bosh hisobchi (A. Xaitboyev) ga:
  - Bo‘lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar va jihozlar (mebel, telefon, kompyuter, printer, seyf va x.k) bilan ta’milangan alohida xizmat xonasi ajratilsin.
5. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha prorektor (S. Davletov), Bosh yuristkonsult (Sh. Atayev), Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i (X. Shixova) larga:
  - Bo‘lim negizida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubini tashkil qilinsin;
  - Universitetning yuksak ma’naviyatli, haqiqatparvar, halol va faol talaba-yoshlarini mazkur klubga a’zo sifatida qabul qilish va klub faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zaruriy choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin;
  - Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini yanada oshirish maqsadida tegishli amaliy choralar ko‘rilsin.
6. Devonxona (M.Satimova) mazkur buyruqni o‘rnatalgan tartibda barcha prorektorlar, bo‘lim boshliqlari va fakultet dekanlari e’tiboriga yetkazilishini ta’milasin.
- 7.Ushbu buyruq ijrosi nazoratini yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha prorektor S. Davletov zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5927-ton Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi hamda Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 28 iyundagi 281-tonli buyrug‘i

Rektor:  
Aslidan to‘g‘ri  
Kadrlar bo‘limi boshlig‘i



B.Abdullayev

X.Rajapov

**Urganch Davlat Universitetining  
2021 yil “3” iyuldag'i  
116-B son buyrug‘iga 1- ilova**

**Urganch davlat universitetining, Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens- nazorat”  
tizimini boshqarish to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**I.Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens- nazorat” tizimini boshqarish bo‘limining (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari javobgarligi, faoliyatini tashkil etish, xodimlarning funksional vazifalari hamda javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim universitetning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘limning faoliyati universitetda “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini olib borishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘z vakolatlari doirasida bevosita universitet rektoriga bo‘ysunadi hamda Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi (keyingi o‘rinlarda - vazirlik)ning Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga hisobot beradi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik buyruqlariga va Hay’ati qarorlariga, mazkur Nizom, universitetning ichki buyruqlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini universitetning boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

**II.Bo‘limning vazifalari va funksiyalari**

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Universitetda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Universitetda “Korrupsiyasz soha” loyihasini universitet miqyosida amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini ta’minalash;

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurash “Komplayens nazorat” tizimini joriy etish va uni amalga oshirish;

Universitetda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

Universitetda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflarni kiritgan holda axborot berib borish;

Universitetda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta’minalash;

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan jamoatchilik nazoratini muvofiqlashtirib borish, shuningdek zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish va jamoat nazorati sohasida umum e’tirof etilgan xalqaro standartlar va xorijning ijobiy tajribasini urganish hamda ilg‘or natijalarni tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Universitetda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish va takliflar ishlab chiqish;

Universitet huzuridagi 2-son akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish.

7. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar va qonunosti hujjatlar, shuningdek, Vazirlik Hay'ati qarorlari va buyruqlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

Korrupsiyaga oid huququzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va ish rejalarini ishlab chiqadi, ularning to'liq, sifatlari va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlaydi, belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ahvolini o'rganadi, natijalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Universitetda "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshiradi;

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihalarni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun rektor(direktor)ga kiritadi;

Universitetning ichki hujjatlarida aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Universitetda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

Universitet professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining hatti-harakatlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huququzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlar va anonim xabarlarni ko'rib chiqadi hamda o'rnatilgan tartibda choralar ko'radi;

Universitetda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlarini reestrini yuritib boradi;

davlat xaridlarini amalga oshrishda manfaatlar to'qnashuvini tahlil qilishda va kontragentlarning ishonchligini tekshirishda ishtirot etadi;

Universitet xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi monitoringini yuritadi va tegishli takliflar kiritadi;

Universitetning professor—o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi xodimlari o'rtasida muntazam ravishda profilaktik suhbatlar tashkil etib boradi;

Universitet faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni aniqlash maqsadida professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi, ishchi-yordamchi xodimlar, talabalar (magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar) va aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazadi;

So'rovlar, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ'iboti bo'yicha chora-tadbirlar natijalari va ta'sirini muntazam ravishda baholab boradi hamda keyingi chora-tadbirlarni belgilashda baholash natijalaridan foydalanadi;

Professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan konferensiylar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlardan tashkil etadi;

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish asosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholaydi;

Universitedada korrupsiyaga oid huququzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganadi, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Universitetning rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlaydi;

Har chorakda va zaruratga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda oliy ta'lim muassasasidagi korrupsiyaviy vaziyat asosida rektorga (direktorga) hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Komplayens-nazorat va korrupsiyaga karshi kurashish bo'limiga hisobot beradi;

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Komplayens-nazorat va korrupsiyaga karshi kurashish bo'limi hamda korrupsiyaga karshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

Universitet huzuridagi akademik litseyning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi; Universitedada korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritadi, tahliliy materiallarni rahbariyatga hamda vazirlikka kiritib boradi.

### **III. Bo'limning huquqlari va javobgarligi**

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Oliy ta'lim muassasasi va uning huzuridagi akademik litseyga ishga qabul qilish, xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, talaba (magistrant, doktorant, mustaqil izlanuvchi)larni imtihonlari (yakuniy, oraliq, malakaviy, yakuniy davlat attestatsiyasi, diplom himoyasi) jarayonlarini bevosita yoki videotranslyatsiya orqali kuzatib borish, mazkur jarayonlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash;

Universitetning hamda uning huzuridagi akademik litseyning professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va u o'quv-yordamchi xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallar, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni so'rash, talab qilish va olish;

Xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida oliy ta'lim muassasasi xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish, zarur hollarda ishchi guruuhlar tashkil etish;

Universitetning Kengashi majlisi yigilishlarida ishtirok etish;

Universitet rektoriga (direktoriga) komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid takliflar kiritish;

Vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazish, hujjatlarni talab qilish, oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, boshqaruv, texnik, xizmat ko'satuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari, talabalar (magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar)dan yozma tushuntirishlar olish;

Jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

O'z faoliyati doirasida oliy ta'lim muassasasining tarkibini bo'linmalariga ko'satmalar va tavsiyalar berish;

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 9. Bo'lim:

O'ziga yuklangan vazifalarning tegishli darajada va samarali bajarishi;

O'ziga yuklangan funksiyalarning bajarilishi hamda ijro intizomini ta'minlash talablarini bajarilish

Universitet rahbariyatiga axborot berish uchun materiallar va hujjatlarning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlanishi;

Universitetda komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati;

Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining o'z vaqtida ko'rib chiqilishi hamda qonunchilik hujjatlari asosida hal etilishi uchun javob beradi.

### IV. Bo'lim tuzilmasi:

10. Bo'lim tuzilmasi bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisni o'z ichiga oladi.

11. Bo'limga boshliq rahbarlik qiladi. Bo'lim faoliyati mustaqilligini ta'minlash maqsadida bo'lim boshlig'i o'z faoliyatida bevosita oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ga va Bo'lim bosh mutaxassisni bo'lim boshligiga bo'ysunadi.

12. Bo'lim boshlig'i oliy ta'lim muassasasining bo'ysunuvidagi vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'iga muvofiq belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Bo'limning bosh mutaxassisini oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

### V. Bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisning asosiy funksional vazifalari:

14. Bo'lim boshlig'inining asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

Bo'limga umumiylar rahbarlik qiladi, bo'lim ishini tashkil etadi, bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi hamda ijro intizomi bo'yicha javob beradi;

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar, qonunosti hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan choratadbirlar va ish rejalarini ishlab chiqadi, ularning to'liq, sifatli va o'z vaqtida ijro etilishini ta'minlaydi;

Universitetda "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi;

Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha materiallar tayyorlaydi;

Fuqarolik jamiyati institutlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, ota-onalar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

Komplayens - nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul shaxslarni o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etadi;

Universitetda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritadi, taxliliy materiallarni rahbariyatga kiritadi;

Bo'lim faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan hujjatlar loyihalari ko'rib chiqilishini ta'minlaydi va takliflar tayyorlaydi;

Universitet Kengashi tarkibiga kiritiladi hamda majlislarda ishtirok etadi;  
Bo'lim ishlarini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Bo'lim faoliyati bilan bog'liq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ijro intizomiga to'liq amal qiladi;

Qonun hujjatlariga muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarini amalga oshiradi.

15. Bosh mutaxassisning asosiy funksional vazifalari quyidagilardan iborat:

Universitet pedagog xodimlari, talaba yoshlar hamda jismoniy va yuridik shaxslar bilan uchrashuvlar tashkil etib, ularni qiyayotgan tizimli muammolarni o'rganadi, universitetda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan yo'nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlaydi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida o'tkaziladigan o'rganishlar, tekshirishlar, taxlillar hamda ishlab chiqiladigan takliflarda mutaxassislarini jalb etishda ishtirok etadi; korrupsiyaga qarshi o'quv-uslubiy va metodik jihatdan, jumladan audio-video roliklar, foto hamda buklet va broshyura kabi materiallarni yaratishni yo'lga qo'yadi;

Universitetda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko'rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa so'rovlarni tashkil etadi;

Bo'lim boshligi bo'lmaganda, bosh mutaxassis faoliyatni muvofiqlashtirib boradi;  
qonunchilik hujjatlariga muvofiq vakolati doirasida boshqa funksional vazifalarni amalga oshiradi.

## **VI. Bo'lim faoliyatini tashkil etish;**

16. Bo'lim o'z faoliyatida sohaga doir qonun hujjatlari, tegishli vazirlik va idoralar buyruqlari, Hay'at qarorlari, universitet Kengashi qarorlari, buyruqlari, mazkur Nizom va Bo'limning ish rejasi asosida amalga oshiradi.

17. Universitetning Kengash qarorlari, rektor buyruqlari va tender hujjatlari Bo'lim bilan majburiy tartibda kelishiladi.

18. Bo'limning ish rejasi universitet ish rejasi tarkibiy qismi hisoblanadi hamda universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

## **VII. Yakuniy qoida:**

19. Bo'lim faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Urganch davlat universitetining, Korrupsiyaga qarshi  
kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi  
NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi (keyingi o‘rinlarda - Klub) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g’risidagi”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-5719-ton Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g’risida”gi PF-5618-tonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 5 martdagagi 120-tonli buyrug‘i, Universitet Kengashining 2021 yil 2-iyuldagagi yig‘ilish qaroriga asosan tashkil etiladi va o‘z faoliyatini mazkur Nizomga asosan olib boradi.

2. Klubning asosiy maqsadi universitet professor-o‘qituvchilar, xodimlari, talaba-yoshlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni va korrupsiyaga qarshi ijtimoiy-psixologik immunitetni shakllantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

3. Klubning asosiy vazifalari:

-targ‘ibot-tashviqot ishlari orqali professor-o‘qituvchilar, xodimlar va talaba-yoshlar o‘rtasida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan nol darajadagi toqatsizlikni shakllantirish;

universitet professor-o‘qituvchilar va xodimlarini faoliyatini olib borishda shaffoflikni ta’minalash hamda mazkur jarayonlarda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi bo‘yicha olib borilayotgan ishlarda talaba-yoshlarning faol ishtirokini ta’minalash;

jamoat va siyosiy hayotning barcha sohalarida, birinchi navbatda, ta’lim tizimida korruptsiyani oldini olish bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqishda faol qatnashish;

universitetning talaba-yoshlar ishtirokida korrupsiyaning mazmun-mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda unga qarshi kurashish bo‘yicha davra suhbatlari, fleshmoblar va boshqa tadbirlar tashkil etish.

4. Klub faoliyati ixtiyoriylik, mustaqillik, qonuniylik, obyektivlik, kollegiallik va oshkorlik tamoyillariga asosan tashkil qilinadi.

**II. Klub tuzilmasi va tashkiliy masalalar**

5. Klub O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan universitet qoshida jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

6. Klub faoliyatiga umumiy rahbarlik universitetning Korrupsiyaga qarshi kurash “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda — Bo‘lim) tomonidan amalga oshiriladi hamda Klub Bo‘lim oldida hisobdor sanaladi.

7. Klub alohida emblemasi (logotipiga)ga ega bo‘ladi.

8. Bo‘lim tomonidan Klub faoliyatida ishtirok etuvchilar ro‘yhati fakultet dekanlari tavsiyasiga asosan og‘zaki so‘rov asosida shakllantiriladi.

9. Bo‘limga taqdim etilgan ro‘yhatda keltirilgan talabalar bilan umumiy tanishuv suhbat o‘tkazadi. Suhbat davomida talabalarning bilim darajasi va dunyoqarashi baholanadi.

10. Suhbat natijasi bo‘yicha talabalarni Klubga a’zoligiga qabul qilish Bo‘lim tomonidan tuzib imzolangan yakuniy ro‘yhat asosida amalga oshiriladi.

11. Klub a’zolarining faoliyati bir nechta sektorlarga bo‘lingan tartibda amalga oshiriladi.

12. Klub a’zolari faoliyatini to‘g’ri tashkil etish va muvofiqlashtirib borish maqsadida Bo‘lim tomonidan har bir sektorga universitet vakili - sektor rahbari hamda a’zolar orasidan sektor yetakchisi ro‘yhati shakllantiriladi.

13. Klub ish rejasida amalga oshiriladigan chora—tadbirlar, ularni o‘tkazishdan maqsad, sanalar, qatnashuvchilar, mas’ul shaxslar va amaliy natijalar aks ettiriladi, mazkur reja har o‘quv yilining boshida Bo‘lim tomonidan tasdiqlanib, uni amalga oshirilishi tizimli ravishda nazorat qilinadi.

14. Klub ish rejasida a'zolarning umumiy yig'ilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusiga bag'ishlangan esselar tanlovi va fleshmoblar, uchrashuvlar, ilmiy seminarlar, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha soha mutaxassislari va taniqli shaxslar ishtirokida uchrashuvlarni o'tkazish kabi tadbirlar aks ettiriladi.

15. Klub a'zolari qonun ustuvorligini ta'minlay oladigan, vatanparvar, korrupsiyaga qarshi kurashishda fidoiy, jonkuyar, odob-axloqi bo'yicha namunali bo'lisi kerak.

16. Klub ish rejasи va hisobotlari Bo'lim boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

17. Klub a'zolariga qonun hujjatlari asosida taqiqlangan harakatlarni amalga oshirish hamda faoliyat davomida xizmatga doir va boshqa ma'lumotlarni oshkor etish qat'iy taqiqlanadi.

18. Klub a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

klub faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lism;

klub doirasida tashkil etiladigan tanlovlар va tadbirlarda qatnashish. Klub a'zolari faoliyatdan kelib chiqqib boshqa huquqlarga ham ega bo'lisi mumkin.

universitet o'quv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda Klub doirasidagi tadbirlarda qatnashishga;

Bo'lim boshlig'inining, Klub sektori rahbari va y etakchisining Klub faoliyatga oid qonuniy ko'satmalarini bajarishga.

20. Talabalar quyidagi asoslarga ko'ra klub a'zoligidan chiqariladi:

o'z xoxishiga ko'ra bergen arizasiga asosan;

universitetni tugatganda;

talabalar safidan chetlashtirilganda va akademik ta'til olganda; xizmatga doir va boshqa ma'lumotlarni oshkor etganda;

sog'ligi imkon bermaganda;

jinoi javobgarlikka tortilganda; qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

21. Talabani klub a'zoligidan chiqarish haqida sektor rahbari Bo'limga bildirgi bilan murojaat qiladi. Bildirgi asosida talaba klub a'zolari ro'yhatidan chiqariladi.

22. Talabani klub a'zoligidan chiqarishga asos bo'lgan holatlarning bartaraf etilganligi (sog'ligi tiklanganda. talabalar safiga tiklanganda, klub a'zoligiga qabul qilish haqida murojaat etganda va boshqalar) uni klub a'zoligiga qabul qilish uchun asos bo'ladi.

23. Mazkur Nizom talablarini buzganligi uchun klub a'zoligidan chiqarilgan talaba kamida olti oy o'tgach, klubga takroran qabul qilinishi mumkin.

### **III.Yakuniy qoidalar**

24. Klub a'zolarining klub doirasidagi faoliyati ularni universitetdagi ta'lim jarayoni doirasidagi majburiyatlardan ozod etmaydi.

25. Universitetda klub a'zolarining ma'lumotnomasi (obyektivka) yuritiladi.

26. Talabalarning klubdagi faoliyati universitet tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

27. Klub faoliyatini tugatish va qayta tashkil etish universitet Kengashi qarori asosida amalga oshiriladi.